2. Solishtirma issiqlik sig‘imi (J/(kg·K))	900 dan 1300 gacha	ГОСТ 23250-78

3. 220 dan 330 °K gacha diapazondagi issiqlikda o'rtacha chiziqli kengayish koeffitsienti $^{\circ}\text{K}^{-1}$	$(13-17) \times 10^{-6}$	ГОСТ 15173-70
4. Solishtirma hajmiy elektr qarshiligi ($\Omega \cdot \text{cm}$)	$10^{14} - 10^{15}$	ГОСТ 12783-91, ГОСТ 16185-82
5. Kompozit materialning zichligi (g/cm^3)	1,75 dan 1,88 gacha	ГОСТ 15139-69
6. Cho'zilibdagi mustahkamlik chegarasi, (MPa, kam emas)	190	ГОСТ 11262-2017
7. Elastiklik moduli (MPa, kam emas)	15000	ГОСТ 9550-81
8. Mahsulot ichki devorining g'adir-budurligi (Ra)	≤ 40	ГОСТ 9378-93
<p><i>Izoh:</i></p> <p>1. Jadvalda kompozit materialning tuzilishiga bog'liq bo'lmagan xususiyatlari keltirilgan (bo'ylama va halqali mustahkamlovchi tolalarning nisbati, bog'lovchi tarkib, bazalt kompozit tolalarining o'ziga xos turlaridan foydalanish).</p> <p>2, 3, 5, 6 ko'rsatkichlar diapazoni barcha ko'rinishdagi va turdagi mahsulotlarning kompozit materialidagi xom ashyo va materiallarning barcha mumkin bo'lgan kompozitsiyalarini qamrab oladi.</p> <p>2. 1-jadval ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlar quvurlar va fittinglar sifatini baholashda kelishmovchiliklar yuzaga kelganda o'tkaziladi.</p>		

21. Quvurlar va fittinglarning germetikligi mazkur davlat standartining 7-jadvalida ko'rsatilgan me'yorlarga muvofiq bo'lishi kerak.

7-jadval

Ko'rsatkich nomi	Tavsifi	Sinov usuli
1. Ichki sinov bosimida quvurlar va fittinglarning germetikligi (1,25 nominal bosim)	Buzilishsiz va germetiklikning buzilishsiz	Mazkur davlat standartining 87-bandi
2. Quvurlar va fittinglarning maksimal ichki bosimi	Germetiklik va mustahkamlikni yo'qotish	Mazkur davlat standartining 87-bandi

22. Quvurlarning ichki diametri +1,0 mm maksimal og'ishga ega bo'lishi kerak.

23. Quvurlar uzunligi +50 mm maksimal og'ishga ega bo'lishi kerak.

24. Fitingning shakllari, o'lchov xususiyatlari, o'lchamlarning maksimal og'ishlarining shartli belgilari ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan texnik hujjatlarda keltiriladi.

3-§. Xom ashyo va materiallarga talablar

25. Mahsulot ishlab chiqarishda quyidagi xom ashyo va materiallardan foydalaniladi:

- poliefir smolalar;
- bazaltli roving;
- katalizator;
- modifitsikatsiya qo'shimchalari.

Fiting uchun mustahkamlovchi to'ldiruvchi sifatida bazalt kompozit tolalaridan qilingan matolar, tasmalar va to'qilgan tuzilmalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

26. Xom ashyo va materiallarning kirish nazorati (xomashyoni ishlatishdan oldin tekshirib olish) ГОСТ 24297-2013 ga muvofiq amalga oshiriladi.

4-§. Quvurlar va fittinglarning butligiga talablar

27. Quvurlar va fittinglar alohida qismlar sifatida yetkazib beriladi. Iste'molchining iltimosiga binoan quvurlar ularga o'rnatilgan muftalar bilan birga yetkazib berilishi mumkin.

28. Muftalar yordamida ulanishlarda foydalanish uchun mo'ljallangan fittinglar zichlovchi rezina halqalar va muftalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Gardishlar alohida-alohida uyumlar va o'ralgan metall halqalar bilan ta'minlanishi mumkin.

29. Quvurni o'rnatish uchun yetkazib berish to'plamida quvurlar, fittinglar, shuningdek ishlab chiqaruvchining o'rnatish va foydalanish bo'yicha qo'llanmasi bo'lishi kerak.

5-§. Quvurlar va fittinglarni tamg'alashga talablar

30. Mahsulotlarni tamg'alashda tovar belgisi va ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, shartli belgisi va ishlab chiqarilgan sanasi ko'rsatilishi kerak.

31. Tamg'alash mahsulotning tashqi yuzasiga tamg'ani joylashtirish uchun yetarli bo'lgan har qanday o'qilishga oson joyda, har qanday tashqi sharoitda uning o'chmasligini ta'minlaydigan tarzda qo'llaniladi. Shaffof qatron qatlami bilan himoyalangan yorliqlar va etiketkalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Tamg'alash quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi korxonasi nomi va/yoki tovar belgisi (mavjud bo'lsa), manzili, telefon raqami;
- mahsulotning nomi va/yoki shartli belgilanishi;
- asosiy o'lchamlari;
- netto massasi, kg;
- to'p raqami;
- ishlab chiqarilgan sana (oy, yil);
- ushbu davlat standartining belgilanishi;
- kafolatlangan saqlash muddati;
- saqlash sharoiti;
- "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" yozuvi, eksportga chiqarish uchun esa "Made in Uzbekistan" yozuvi.

32. Agar mahsulotlarning transport qadoqlarida ogohlantiruvchi yoki ko'rsatuvchi belgilar va ma'lumot yozuvlarini qo'llash zarur bo'lsa, ular GOCT 14192-96 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6-§. Quvurlar va fittinglarni qadoqlashga talablar

33. Quvurlar gorizontal yuzalarga yog'och bruslar yoki lojementlarga taxlanishi, bir nechta qator qilib taxlanganda, quvurlar g'aramning kengligi bo'ylab cheklovchi ustunlar bilan joylashtirilishi zarur. G'aramning balandligi 2 m dan oshmasligi kerak.

34. Quvurlar va fittinglar alohida-alohida qadoqlanmaydi. Quvurlarni yuklab jo'natish GOCT 10692-2015 talablari bo'yicha amalga oshiriladi.

35. Iste'molchi bilan kelishilgan holda quvurlar maxsus transport kassetalari yoki paketlarga o'rab joylanadi va yetkazib beriladi. Quvurlar orasidagi shikastlanishga yo'l qo'ymaslik uchun yog'och bruslar yoki lojementlar ishlatiladi.

5-bob. Xavfsizlik va atrof-muhitni muxofaza qilish talablari

36. Quvurlarni ishlab chiqarishda GOCT 12.2.003-91 ga muvofiq uskunalarga bo'lgan umumiy xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur.

37. GOCT 19433.1-2010 tasniflagichi bo'yicha quvurlar xavfli yuk hisoblanmaydi.

38. Quvurlar va fittinglar GOCT 12.1.007-76 bo'yicha xavflilikning 4-sinfiga tegishli hisoblanadi.

39. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar SanQvaN 0300-11 ga muvofiq utilitatsiya qilinishi kerak.

40. Quvurlar va fittinglar uchun yong'inga doir quyidagi texnik ko'rsatkichlar belgilanadi:

GOCT 30244-94 bo'yicha 3 yonuvchanlik guruhi,

GOCT 30402-96 bo'yicha 4-alanganuvchanlik guruhi,

GOCT 12.1.044-2018 bo'yicha tutun hosil qilish qobiliyati va yonuvchan mahsulotlarining toksiklik guruhi.

41. Ochiq olovga yaqinlashtirilganda quvurlar portlashsiz yonadi, olovdan chiqarilganda ular o'chadi. Mahsulotlar GOCT 12.1.044-2018 bo'yicha qiyin yonuvchan moddalar guruhiga kiradi. Yong'in o'chirish vositalari sifatida uglerod ikki oksidi, yong'inga qarshi vositalar, suv purkagich, ko'pik, qum yoki namatdan foydalanish lozim.

42. Ishlab chiqarish binolarining ish joyi havosidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi va ularning xavflilik sinfi GOCT 12.1.005-88 ga muvofiq bo'lishi zarur.

43. Quvurlar va fittinglarni ishlab chiqarishda ishchilar GOCT 12.4.011-89 va GOCT 12.4.103-83 bo'yicha shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi va GOCT 12.4.021-75 ga muvofiq sanoat binolarida so'ruvchi-tortuvchi ventilyatsiya bo'lishi lozim.

44. Aholi yashash joylari atmosfera havosidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan miqdorlari SanQvaN 0293-11 ga muvofiq bo'lishi kerak.

45. Ishlab chiqarish binolari ShNQ 2.09.04-09 ga asosan maishiy xonalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

46. Atmosferaga chiqadigan chiqindilarning ruxsat etilgan miqdori nazorati GOCT 17.2.3.02-2014 bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

47. Yuklash va tushirish ishlari GOCT 12.3.009-76 bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

48. Mahsulotlarni ishlab chiqarish va saqlash vaqtida yong'in va portlash xavfsizligi yong'indan himoya qilish va oldini olish tizimlari GOCT 12.1.004-91, GOCT 12.1.010-76 va GOCT 12.1.018-93 bo'yicha ta'minlanishi kerak.

6-bob. Qabul qilish qoidalari

49. Quvurlar va fittinglar to'plarda qabul qilinadi. Bitta to'pdagi quvurlar yoki fittinglar soni 200 donadan oshmasligi lozim.

50. Sifat to'g'risidagi hujjat (pasport) quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- sifat to'g'risidagi hujjat (pasport)ning raqami;

- ishlab chiqaruvchi korxonasi nomi, uning tovar belgisi (mavjud bo'lsa), manzili;

- mahsulotning nomi va shartli belgilanishi;

- to'p raqami va ishlab chiqarish sanasi;
- kafolatlangan saqlash muddati va sharoiti;
- sinovlarning natijalari;
- ushbu davlat standartining belgilanishi.

51. Quvurlar va fittinglarning ushbu davlat standarti talablariga muvofiqligini tekshirish uchun quyidagi sinov turlari o'tkazilishi kerak:

- qabul qilish-topshirish;
- davriy;
- namunaviy;
- sertifikatlashtirish.

52. Qabul qilish-topshirish sinovlari quvurlar va fittinglarning har bir to'pida ushbu davlat standartining 8-jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

53. Qabul qilish-topshirish sinovlaridan o'tgan quvur namunalari yiliga kamida bir marta ushbu davlat standartining 8-jadvaliga muvofiq davriy sinovdan o'tkazilishi kerak. Sinov uchun quvurlarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish liniyasidan tanlashga ruxsat beriladi.

54. Quvurlarning ushbu davlat standarti talablariga muvofiqligini tekshirish uchun har bir to'pdan kamida uchta quvur va fitting tasodifiy tanlanadi, ularda tamg'alash va qadoqlash holati vizual tekshiriladi.

55. Tanlangan namunalarning ko'ndalang kesim o'lchamlari, o'lchangan kesimning uzunligi va old yuzaning sifati tekshiriladi.

56. Fizik-mexanik xususiyatlarni va 1 metr mahsulotning massasini aniqlash uchun sinovdan o'tgan o'lchov kesimlarining har biridan bittadan namunalar olinadi.

57. Agar ko'rsatkichlarning kamida bittasi uchun qoniqarsiz natijalar olinsa, ushbu ko'rsatkich uchun ikki marta namunalar bo'yicha takroriy sinovlar o'tkaziladi.

58. Takroriy sinovlarda qoniqarsiz natijalar qayd etilsa to'p qabul qilinmaydi.

59. Quvurlarning o'lchamlari hamda bir metr mahsulotning massasini tekshirish natijalariga ko'ra qabul qilinmagan quvurlar to'pi qayta tekshiriladi va 100 foiz saralash qayta amalga oshiriladi. Sinovdan o'tgan quvurlardan yangi to'p tuziladi va qabul qilish uchun taqdim etiladi.

60. Namunaviy sinovlar quvurlar va fittinglarning texnik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tuzilishi va ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda amalga oshiriladi.

61. Sertifikatlashtirish sinovlari ushbu davlat standartining barcha texnik talablariga muvofiq o'tkazilishi lozim.

8-jadval

Ko'rsatkich nomi	Ushbu davlat standartining kichik bo'lim, band, jadval raqami		Nazorat davomiyligi	Tanlab olish hajmi
	Texnik talablar	Nazorat usullari		
1. Tashqi ko'rinish, tashqi va ichki yuza holati	4-bob 2-§, 17-18-bandlar, 24-band	65-band	Har bir to'pda	100 foiz

2. Mahsulotning geometrik o'lchamlari	7-band 1-jadval, 19-band, 22-23-bandlar	66-71-bandlar	Har bir to'pda	100 foiz
3. Quvurlarning og'irligi	7-band 2-jadval	72-band	6 oyda 1 marotaba	3 ta mahsulot
4. Quvurlarning tashqi yuklanishga nisbatan mustahkamligi (qattiqligi)	16-band 3-jadval	73-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
5. Bo'ylama va belbog'li (ko'ndalang) cho'zilish intensivligi	16-band 4 va 5-jadval	74-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
6. Ichki sinov bosimida quvurlar va fittinglarning germetikligi (1,25 nominal bosim)	21-band 7-jadval	75-86-bandlar	6 oyda 1 marotaba	100 %
7. Quvurlar va fittinglarning maksimal ichki bosimi	21-band 7-jadval	75-86-bandlar	6 oyda 1 marotaba	Bitta quvur, kamida ikkita fitting
8. Kompozit material ko'rsatkichlari				
1. Polimerizatsiya darajasi	20-band 6-jadval 1-ko'rsatkich	ilova	Buyurtmachi talabiga ko'ra	1 ta mahsulot
2. Solishtirma issiqlik sig'imi	20-band 6-jadval 2-ko'rsatkich	88-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
3. 220 dan 330 °K gacha diapazondagi issiqlikda o'rtacha chiziqli kengayish koeffitsienti	20-band 6-jadval 3-ko'rsatkich	89-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
4. Solishtirma hajmiy elektr qarshiligi	20-band 6-jadval 4-ko'rsatkich	90-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
5. Kompozit materialning zichligi	20-band 6-jadval 5-ko'rsatkich	91-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
6. Cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi	20-band 6-jadval 6-ko'rsatkich	92-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
7. Elastiklik moduli	20-band 6-jadval 7-ko'rsatkich	93-band	6 oyda 1 marotaba	1 ta mahsulot
8. Mahsulot ichki devorining g'adirbudurligi	20-band 6-jadval 8-ko'rsatkich	94-band	Buyurtmachi talabiga ko'ra	1 ta mahsulot

7-bob. Nazorat usullari

62. Sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish ishlab chiqarilganidan keyin kamida 72 soat davomida saqlanib turgan namunalarda amalga oshiriladi.

63. Quvurlar va fitting sirtlarining tashqi ko'rinishi va sifatini aniqlashda ularni kattalashtiruvchi asboblardan foydalanmasdan mavjud namuna-etalon bilan solishtirgan holda vizual amalga oshiriladi.

1-§. Geometrik o'lchamlar va og'irlikni aniqlash

64. Quvurlarning ichki diametri va qalinligini aniqlash GOCT 166-89 bo'yicha shtangensirkul yordamida, o'lchov chegaralari 630 mm gacha bo'lgan holda amalga oshiriladi. Har bir parametarning sinov natijasi sifatida quvurning har ikki uchidan ikkita o'zaro perpendikulyar radial yo'nalishda o'lchangan to'rtta o'lchashning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

65. Quvurlar uzunligini aniqlash GOCT 7502-98 bo'yicha nominal o'lchov uzunligi 10 m va 20 m va aniqlik sinfi 3 bo'lgan tasmali ruletk bilan amalga oshiriladi. Sinov natijasi ikkita diametrl qarama-qarshi generatorlar bo'yicha ikkita mutlaqo qarama-qarshi yuza hosil qiluvchi o'rtacha arifmetik qiymati

sifatida qabul qilinadi.

66. Quvurning ichki diametrini aniqlashda quvurning har ikki uchidan ikkita o'zaro perpendikulyar radial yo'nalishda o'lchash amalga oshiriladi. O'lchash natijasi sifatida to'rtta o'lchovning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

67. Ishlov berilmaganda quvurning devor qalinligi quvurning har ikki uchidan ikkita o'zaro perpendikulyar yo'nalishda o'lchanadi. O'lchash natijasi sifatida to'rtta o'lchovning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Bunday holda, hech qanday joyda qalinligi minimal ruxsat etilganidan kam bo'lmasligi kerak.

68. Fiting va quvurlarni ulash elementlarining o'lchamlarini aniqlash quyida ko'rsatilgan universal o'lchash asboblari yordamida amalga oshiriladi:

- GOCT 166-89 bo'yicha shtangensirkul;
- GOCT 5378-88 bo'yicha burchak o'lchagich;
- GOCT 6507-90 bo'yicha mikrometr.

69. Kerakli o'lchov aniqligini ta'minlaydigan boshqa o'lchov vositalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

70. Bir metrli quvurning hisoblangan massasini aniqlash GOCT 29329-92 ga muvofiq umumiy maqsadli tarozi yordamida amalga oshiriladi. Uchta namunani tortish natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati 1 m quvurning hisoblangan massasi sifatida olinadi.

71. Quvurlarning tashqi yuklanishga nisbatan mustahkamligi (qattiqligi) O'z DSt 736:96 bo'yicha aniqlanadi.

72. Quvurlar va fittinglarning bo'ylama va ko'ndalang (belbog'li) cho'zilish intensivligi GOCT 11262-2017 bo'yicha aniqlanadi.

73. Quvurlar va fittinglarning germetikligi gidro sinov uskunasida sinov bosimi bilan amalga oshiriladi.

Sinov namunasi uchlariga tiqinlar o'rnatiladi va namunaning devorlariga to'g'ridan-to'g'ri kuchlanish tushmaydigan holatda bronli kameraga o'rnatiladi.

Shundan so'ng mahsulotning ichki bo'shlig'idan havo to'liq chiqarilgunga qadar namuna past bosimli nasosdan ishlaydigan suyuqlik (suv) bilan to'ldiriladi, yuqori bosimli nasos ulanadi va ichki bosim 3 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt ichida sinov bosimi qiymati nominal qiymatdan yuqoriga ko'tariladi.

74. Quvurlarni sinovdan o'tkazishda sinov bosimi, agar konstruktorlik hujjatlarida boshqa qiymat ko'rsatilmagan yoki iste'molchi tomonidan belgilanmagan bo'lsa, nominal bosimdan ($R_{to'g'}=1,25$ PN) to'rtidan bir daraja yuqori bo'lishi kerak. 5 MPa dan ortiq sinov bosimida mahsulotlarni ushlab turish muddati kamida 30 minut, boshqa bosimlar uchun – kamida 10 minut bo'lishi kerak.

Fitinglarni sinovdan o'tkazishda sinov bosimi 1,7 PN ga teng bo'lishi va kamida 15 daqiqa davomida doimiylikni saqlashi kerak.

75. Sinov paytida vizual tarzda sinish, yoriqlar, materialning shishishi, ishchi suyuqlikning tomishi, tomchilar, oqimlar shaklida tashqi yuzasiga sizib chiqish aniqlanmasa, quvur yoki fitting sinovdan o'tgan deb hisoblanadi.

Agar quvur yoki fitting mazkur davlat standartining 79-bandining birinchi xatboshisiga muvofiq sinovdan o'tgan bo'lsa, bittadan namuna sinab ko'riladi.

76. Yakuniy bosimni yo'qotish sinovi uchun ushbu davlat standartining 79-bandida ko'rsatilgan sinovlardan o'tgan quvur yoki fitting tanlanadi.

77. Quvurlar va fitting uchun chegaraviy bosimini germetiklik yoki mustahkamlikni yo'qotishdan oldin aniqlash gidro sinov inshootida ichki bosim bilan gidro sinov o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

78. Mazkur davlat standartining 77-bandiga muvofiq yon tiqinli sinov namunasi bronli kameraga o'rnatiladi va mahsulotning ichki bo'shlig'idan havo to'liq chiqarilgunga qadar past bosim bilan ishlaydigan nasos orqali suyuqlik (suv) bilan to'ldiriladi. Keyin yuqori bosimli nasos ulanadi va 5 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt ichida ichki bosim germetikligi yo'qolguncha yoki mahsulotning devori buzilguniga qadar nominal bosimdan ko'tariladi.

Sinov bosimi 2,5 PN dan oshsa sinov tugatiladi.

79. Cheklovchi bosim mahsulotlarining zichligi yoki mustahkamligi yo'qolgan bosim sifatida qabul qilinadi.

80. Quvurlar yoki fittinglarda chegaraviy bosim mazkur davlat standartining 78-bandidagi sinov bosimidan katta bo'lsa, ular sinovdan o'tgan deb hisoblanadi.

81. Agar quvur yoki fitting mazkur davlat standartining 84-bandiga muvofiq sinovdan o'tgan bo'lsa bitta namuna sinovdan o'tkaziladi.

82. Sinovlar paytidagi harorat (20 ± 5) °C ga teng bo'lishi lozim.

Suv bilan sinovlar o'tkazishda xodimlarga zarar yetkazmaslik uchun zarur bo'lgan barcha ehtiyot chorolari ko'rilishi kerak.

83. Polimerizatsiya darajasini aniqlash mazkur davlat standartining ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

84. Solishtirma issiqlik sig'imi GOCT 23250-78 bo'yicha aniqlanadi.

85. 220 dan 330 °K gacha diapazondagi issiqlikda o'rtacha chiziqli kengayish koeffitsienti GOCT 15173-70 bo'yicha aniqlanadi.

86. Solishtirma hajmiy elektr qarshiligi GOCT 12783-91, GOCT 16185-82 bo'yicha aniqlanadi.

87. Kompozit materialining zichligi GOCT 15139-69 bo'yicha o'lchash va aralashtirish usuli bilan aniqlanadi.

88. Cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi GOCT 11262-2017 bo'yicha aniqlanadi.

89. Elastiklik moduli GOCT 9550-81 bo'yicha aniqlanadi.

90. Mahsulot ichki devorining g'adir-budurliigi GOCT 9378-93 bo'yicha aniqlanadi.

8-bob. Transportda tashish va saqlashga talablar

91. Quvurlar ko'rinishi, turi va o'lchami bo'yicha saralangan holda saqlanadi.

92. Quvurlar gorizontol holatda lojement-konteynerlarda yoki stellajlarga dasta-dasta holatda bog'lanib yoki sochma holda normal yoki yuqori namlikda minus 50°C dan plyus 50 °C gacha bo'lgan haroratda saqlanadi. To'g'ridan-to'g'ri quyosh nuriga ta'sir qilishning oldi olinishi kerak.

93. Stellaj ustunlari orasidagi masofa quyidagicha bo'lishi kerak:

- ichki diametri 100 mm gacha bo'lgan quvurlar uchun – 2 m dan ko'p emas;

- ichki diametri 100 mm dan ortiq bo'lgan quvurlar uchun – 3 m dan ko'p emas.

94. Qisqa yon tomonga o'rnatilgan quvurlarni saqlash taqiqlanadi.

95. Yuklash va tushirish ishlari paytida quvurlarni osish joylari ularning o'rtasida yoki uchlarida, quvurlarning ruxsat etilgan maksimal og'ishini ta'minlagan holda tanlanishi lozim. Turli diametrli quvurlarning ruxsat etilgan og'ishi ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan texnik hujjatlarda belgilanadi.

96. Quvurlar barcha transport vositalarida yuklarni tashish qoidalariga, shuningdek ushbu transport turlarida ishlaydigan yuklarni ortish va mustahkamlash uchun texnik shartlarga muvofiq gorizontol holatda, konteynerlarda, to'plamlarda yoki sochma holda tashiladi.

97. Quvurlarni qoplamalarda va sochma holda tashishda tagliklar transport vositasining poliga o'rnatilishi kerak. Tagliklar orasidagi masofa quyidagicha bo'lishi lozim:

- ichki diametri 100 mm gacha bo'lgan quvurlar uchun – 2 m dan ko'p emas;

- ichki diametri 100 mm dan ortiq bo'lgan quvurlar uchun – 3 m dan ko'p emas.

98. Quvurlarni saqlash, yuklash, transportda tashish va tushirishda ularning mexanik shikastlanishi va o'zaro harakatlanishining oldini olish choralarini ko'rish kerak.

99. Quvurlar yuk avtomobilining korpusiga yumshoq tasmalar yoki troslar bilan bog'langan to'plamlarda yoki quvurlarni tashish uchun mo'ljallangan g'ilof yordamida joylanadi.

100. Barcha turdagi fittinglar yashiklarda transportda tashiladi.

9-bob. Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar

101. Kompozit materiallardan tayyorlangan mahsulotlar normal va yuqori namlik bilan mo'tadil va sovuq iqlimi bo'lgan makro iqlimli hududlarda minus 50 °C dan plyus 50 °C gacha bo'lgan muhit haroratida ishlash uchun mo'ljallangan.

102. Quvurlar va fittinglar faqat texnik topshiriqda ko'rsatilgan maqsadlarda va 115 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda ishlatilishi kerak.

103. Quvurlarni o'rnatishda quvurlarning tashqi va ichki qatlamlari va ulangan qismlarning yaxlitligiga, shuningdek quvur uchlari, muftalar va zichlagichlarning yaxlitligi holatiga e'tibor berish kerak.

Agar quvur yoki muftaning ichki qatlamida, muftani o'rnatish uchun tayyorlangan quvur uchining tashqi yuzasida yoki muftaning zichlangan halqalarida nuqsonlar aniqlansa, o'rnatishga faqat nuqsonlar bartaraf etilgandan keyin ruxsat beriladi.

104. Zarurat mavjud bo'lsa, quvurlar va boshqa qismlarning ichki yuzalarini latta, yumshoq cho'tkalar va yog'och moslamalar bilan tozalanadi. Tozalash uchun metall asboblardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

105. Mahsulotlarni o'rnatish va ishlatish jarayonida quvurga 1 m dan yaqinroq ochiq olovdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

10-bob. Ishlab chiqaruvchi kafolatlari

106. Ishlab chiqaruvchi, iste'molchi transportda tashish va saqlash shartlariga rioya qilgan holda quvurlar va fittinglarning ushbu davlat standarti talablariga muvofiqligini kafolatlaydi.

107. Sovuq suvni tashish uchun mo'ljallangan barcha turdagi mahsulotlarning standart xizmat qilish muddati 60 yil, kimyoviy agressiv birikmalar uchun – har bir alohida holatda ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'shimcha ravishda belgilanadi.

108. Kafolatlangan saqlash muddati – ishlab chiqarilgan kundan boshlab uch yil.

O‘z DSt 3641:2023 “Bazalt kompozit materiallardan quvurlar va fittinglar. Texnikaviy shartlar” davlat standartiga
ILOVA

Mahsulot materialining polimerizatsiya darajasini aniqlash

1. Usulning mohiyati polimerizatsiya darajasi Sokslet qurilmasidan foydalangan holda sug‘urib olish usuli bilan aniqlanadi.

2. Mahsulot materialining polimerizatsiya darajasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan qurilmalar va reaktivlar quyidagilardan iborat:

- termoregulyatorli quritish shkafi;
- og‘ishi $\pm 0,0002$ g va tarozida tortish chegarasi 200 g bo‘lgan tarozi;
- FOCT 25336-82 bo‘yicha eksikator;
- isitish harorati 1000 °C bo‘lgan mufel pechi;
- FOCT 9147-80 bo‘yicha chinni tigel;
- FOCT 25336-82 bo‘yicha tarozida tortish uchun kichik stakan;
- sokslet qurilmasi;
- elektr plitasi;
- FOCT 2603-79 bo‘yicha tahlil uchun sof aseton, oldindan suvsizlantirilgan qizdirilgan kalsiy xlor;
- filtrlash qog‘ozi.

3. Sinov o‘tkazishda dozalangan sinov materiali (kompozit materialining mayda qirindilari) quritilgan filtr qog‘oz qoplarga joylashtiriladi, tarozida tortiladi va keyin suvsizlantirilgan aseton bilan Sokslet qurilmasi eksikatoriga joylashtiriladi, unda qizdirilgandan keyin 9 soat davomida qirindilar olib tashlanadi.

Sovutgandan so‘ng, qopchalar eksikatoridan chiqariladi va pechda 100 °C dan 105 °C gacha haroratda doimiy og‘irlikda quritiladi.

Kompozit materialdagi smola miqdori chinni tigellarga joylashtirilgan uchta namunani 600 °C haroratda mufel pechida 5 dan 6 soatgacha doimiy og‘irlikgacha yondirish orqali aniqlanadi.

4. Natijalarni tayyorlashda dastlab kompozit materialdagi yonuvchi komponentning massa ulushi (C, foizlarda) aniqlab olinadi. U quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$C = \frac{100 \times (C_2 - C_1)}{C_2}$$

bu yerda:

S_2 – materialning kuygunigacha bo‘lgan qirindisi massasi, g;

S_1 – materialning kuydirilgandan keyingi qirindisi massasi, g.

5. Qirindidagi kuydirilgan komponent massasi V , g, quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$B = \frac{A \times C}{100}$$

bu yerda A – kompozit materialining qirindisining tortib olingunigacha bo‘lgan massasi, g.

6. Kompozit materialining polimerizatsiya darajasi X, %, quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$X = 100 - \frac{(A - B) \times 100}{B}$$

bu yerda:

A – kompozit materialining qirindisining tortib olingunigacha massasi, g;

B – qirindining tortib olingandan keyingi massasi, g;

V – qirindidagi komponentning kuyish massasi, g.

Sinov natijasi ikkita parallel aniqlashning o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida olinadi, ular orasidagi ruxsat etilgan og‘ishlar 0,01 foizdan oshmasligi kerak.